O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/2



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/2

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
K.F.Bayazitov,
F.K.Turdiyev,
N.J.Isakulova,
K.D.Yarashev,
D.X.Umarov,
M.S.Olimov,
A.N.Shopo‘latov,
S.B.Repkin,
A.Akbarov,
I.P.Sivoxin,
N.T.To‘xtaboyev,
I.J.Mambetnazarov,
I.B.Aliyev,
L.P.Yugay,
A.K.Eshtayev,
K.Sh.Ziyadullayev,
A.B.Jumaniyazov,
M.M.Qirg‘izboyev,
Z.Gapparov,
A.Xodjiyev,
A.U.Rashidov,
R.X.Nabiullin,
S.R.Davletmuratov,
O.E.Mamishev,
M.A.Ibragimov,
R.D.Xalmuxamedov,
B.A.Ishimov,
X.X.Atamuratov,
B.A.Satipov

Tahrir hay’ati kotibi
SH.X. Toshturdiyev

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Р.Д. Халмухамедов – Сравнительный анализ выступления сборной Узбекистана по боксу на чемпионатах мира 2025 года (Ливерпуль и Дубай). 3

Ш.Т. Исеев – Методология управления подготовкой футболистов с использованием современных технологий. 7

Sh.F. Tulaganov., J.O‘. Parpieva – “To‘p marraga” o‘yini orqali o‘quvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 11

Ш.Ш. Газиев., С.З. Нуруллаев – Особенности формирования и совершенствования технико-тактической подготовки в самбо и дзюдо. 16

B.A. Ishimov – Brass usulida suzuvchilarning oyoq kuchini rivojlantirish uchun mashqlar majmuasini tadqiq etish. 19

O.R. Igamberdiyev – Turli yoshdagi futbolchilar texnik-taktik tayyorgarligini baholash va boshqarishning pedagogik mexanizmlari. 22

X.M. Toshpulatov., B.B. Bakirov – Voleybolchilarda sakrash faoliyati samaradorligini oshirishda vaziyatli mashqlar asosida sakrash chidamkorligini rivojlantirish. 25

X.X. Qurbonov – O‘rta masofalarga yuguruvchilar sport mahoratini takomillashtirish bosqichi ikkinchi yilida sport formasini rivojlantirish mexanizmi. 28

G‘.N. Ernazarov., R.R. Majidov – Boks sport turi bilan shug‘ullanuvchilarda muvozanat saqlash mexanizmini tahlillari. 31

D.A. Alimova – Sportchi-talabalarini professional boksning turli jihatlariga bo‘lgan munosabatini o‘rganish natijalari. 34

A.A. Boltayev – Maxsus ish qobiliyatining sakrovchanlik komponentlari orqali voleybolchilar tayyorgarligini tahlil qilish. 39

С.А. Юнусов – Сравнительная эффективность традиционной и экспериментальной моделей тренировочного процесса у пара пауэрлифтеров высокой квалификации. 42

U.Sh. Valixonov – Maxsus tibbiy guruhlarga mansub talabalar sonining ortish tendensiyalari va sog‘lomlashtiruvchi atletik gimnastikaning optimal turlari. 45

S.E. Qodirov – Malakali dzyudochilarda maxsus kuch va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. 49

A.A. Yakubov – Yosh basketbolchilarning tezkor-kuch tayorgarligini differensiyali yondoshuv asosida takomillashtirish. 53

I.I. Islomov – 16–17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini rotatsion mashg‘ulotlar orqali rivojlantirishning ahamiyati. 56

K.A. Yuldasheva – Yosh sportchi qizlarda disk uloqtirish natijalariga antropometrik ko‘rsatkichlarning ta’sirini statistik tahlil asosida baholash. 60

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N. G‘afforov
U.O. Azimova
M.S. Ayxodjaeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

“FAN – SPORTGA” ilmiy-nazariy jurnali

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/2

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Z.X. Yusupova., S.B. Ibragimova – Sport faoliyatida statistik tahlilni amalga oshirishda SPSS dasturidan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligi. 63

J.M. Ishtayev – Sport turlari kesimida portlash qobiliyati va temperament tiplari o‘rtasidagi bog‘liqlik. 66

O.X. Xasanov – Yosh futbolchilarning yurak ritmi variabilligini baholash metodikasi. 70

Г.А. Ералиева., Н.К. Султанова., Ш.Т. Хайдаров – Функциональное состояние сердечно-сосудистой системы гимнастов. 73

Х.Э. Мусулмонов – Практическая значимость формирования симметричных технических действий (бросков справа и слева) у борцов на поясах в экспериментальных условиях. 77

F.Ch. Ziyayev – Bosqon uloqtirish bo‘yicha sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyasi. 80

X.X. Qurbonov – Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o‘rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini bosqichli takomillashtirish mexanizmi. 83

R.S. Xudarganov., R.B. Otaxonov., A.I. Otaboyev – 14–15 yoshli og‘ir atletikachilarning tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va uning sport natijalariga ta’siri. 86

B.O. Amangeldiev – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarga texnik-taktik usullarini o‘rgatish muammolari. 89

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА

L.T. Davlatova., U.R. Sharopova – Yugurib kelib uzunlikka sakrovchi ko‘zi ojiz sportchilarning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asoslari. 92

Sh.I. Djumanazarova – Adaptiv jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish orqali tayanch-harakat apparatida buzilishlari mavjud bo‘lgan o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish. 95

L.T. Davlatova – Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida para voleybolchilarni jismoniy va maxsus tayyorgarligini oshirish texnologiyasi. 99

N.SH. Bobomuradov – Malakali paradzyudochilarning mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish. 102

OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SPORT
MASS PHYSICAL CULTURE AND SPORTS
МАССОВАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

M.K. Jumaniyazov – 14–18 yoshli regbichilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari. 106

A.N. Shopulatov – Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar malakasini rivojlantirish yo‘llari. 110



Mustaqil izlanuvchi
B.O. AMANGELDIEV[1]
[1]Qoraqalpoq davlat universiteti
Nukus shahri, Qoraqalpog‘iston

https://orcid.org/0009-0009-9407-9592

10.65149/fansport.2026.v9i2.a026

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI 10-12 YOSHLI YUNON-RUM KURASHCHILARGA TEXNIK-TAKTIK USULLARINI O‘RGATISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

В статье научно обоснована роль и значение технических приемов в стойке и партере у борцов греко-римского стиля на этапе начальной подготовки. С целью совершенствования технико-тактической подготовки предложены эффективные пути взаимосвязанного обучения приемам в стойке и партере, а также разработаны практические рекомендации.

***Ключевые слова**: греко-римская борьба, этап начальной подготовки, технико-тактическая подготовка, стойка, партер, анкетирование.*

Abstract

Ushbu maqolada boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilari uchun tik turgan va parter holatlarida bajariladigan texnik usullarning o‘rni hamda ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish maqsadida tik turgan va parter holatlaridagi usullarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatishning samarali yo‘llari asoslab berilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

***Kalit so‘zlar**: yunon-rum kurashi, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, texnik-taktik tayyorgarlik, tik turgan holat, parter holati, so‘rovnoma.*

This article analyzes the role and significance of technical actions performed in the standing and parterre positions for Greco-Roman wrestlers at the initial training stage. In order to improve technical and tactical preparedness, effective methods for teaching standing and parterre techniques in an integrated manner are substantiated, and practical recommendations are provided.

***Keywords**: Greco-Roman wrestling, initial training stage, technical and tactical training, standing position, parterre position, questionnaire.*

Dolzarbligi. Yunon-rum kurashi yozgi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan eng mashhur va ommaviy sport turlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda dunyoning barcha qit’alarida minglab sportchilar tomonidan shug‘ullanib kelinmoqda. Yunon-rum kurashida raqobatning kuchayishi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidan tortib oliy sport mahorati bosqichigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda tayyorgarlik jarayonini tashkiliy va uslubiy jihatdan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llarini izlab topishni talab etmoqda. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirish hamda o‘quv-mashg‘ulot yuklamalarini me’yorlash texnologiyasi hozirgi kunga qadar yetarli darajada ilmiy asoslab berilmagan. Bu esa mutaxassislar tomonidan mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi [2; 38–41-b., 3; 186-b.].

Bugungi kunda sport natijalari boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidayoq murabbiylarning kasbiy sifatlari, ularning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘ymoqda. Yoshlar sporti Olimpiya o‘yinlari sportchilar uchun xalqaro ko‘p tarmoqli musobaqa bo‘lib, sport zaxiralarini tayyorlashning muhim bazasi hamda tarbiyaning universal vositasi hisoblanadi. Shu bois sportning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichini samarali tashkil etish, o‘quv-mashg‘ulot ishlarining oqilona tashkiliy shakllari, vosita va uslublarini izlash dolzarb vazifa hisoblanadi [4; 20-b.].

So‘nggi yillarda musobaqa bellashuvlari mazmuni hamda reglamentida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Zamonaviy yunon-rum kurashida bellashuv vaqti qisqarib, kurash jarayoni yanada jadal tus oldi, uzluksiz hujum harakatlari rag‘batlantirilmoqda. Bu esa kurashchilardan texnik-taktik vazifalarni tezkor hal etish, hujumkor va kombinatsion harakatlarni samarali qo‘llashni talab etadi. Biroq mavjud texnik-taktik tayyorgarlik uslubiyati zamonaviy kurash talablarini to‘liq hisobga olmayapti. Shu sababli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida texnik-taktik harakatlarni tizimli o‘rgatish keyingi o‘quv-mashg‘ulot bosqichlari, sport mahorati bosqichi va oliy sport mahorati bosqichi uchun mustahkam amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning texnik harakatlarini o‘rgatish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish mazkur ishning asosiy maqsadi etib belgilandi.

O‘tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, bugungi kunda yurtimiz va xorijiy olimlar tomonidan sport kurashlari bo‘yicha qator darslik va metodik qo‘llanmalar yaratilgan (F. Kerimov, A. Ruziyev, N. Tastanov, Z. Bakiyev, S. Adilov, Sh. Toshturdiev, A. Primbetov, Dj. Tashnazarov, B. Satipov, U. Jarilkapov, A. Yakupbayev). Jumladan, B. A. Satipov tomonidan boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi erkin kurashchilarning texnik-taktik usullarini o‘rgatish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan [5; 58-b.]. Biroq boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini samarali o‘rgatish masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning tayyorgarlik muammolarini aniqlash maqsadida murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi o‘tkazildi, ularning fikrlari o‘rganildi hamda natijalari tahlil qilindi (1-jadval).

Anketa so‘rovnomasi 3 yilgacha, 4–5 yil, 6–10 yil hamda 10 yildan ortiq murabbiylik tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarning har bir guruhidan 10 nafardan, jami 40 nafar murabbiy ishtirokida o‘tkazildi.

1-jadval

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarga o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi murabbiylardan mashg‘ulotlarning tuzilishiga oid muammolarni aniqlashda olingan anketa so‘rovnoma natijalari (n=40)

Javoblar	Malakali murabbiylar	n=40
1-Savol. Yunon-rum kurashchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga necha yoshdan qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz ?		
A	6-7 yoshdan	20 %
B	9-10 yoshdan	50 %
V	7-8 yoshdan	30 %
2-Savol. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (1-yil) haftasiga necha marta mashg‘ulotlar olib borasiz?		
A	Ikki marta	0 %
B	Uch marta	80 %
V	To‘rt marta	20 %
3-Savol. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (2-yil) haftasiga necha marta mashg‘ulotlar olib borasiz?		
A	Ikki marta	0 %
B	Uch marta	30 %
V	To‘rt marta	70 %
4-Savol. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi yunon-rum kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yoshga xos harakatli o‘yinlar va maxsus mashqlardan foydalanasizmi?		
A	Ha	20 %
B	Yo‘q	50 %
V	Javob bera olmayman	30 %
5-Savol. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarga texnik usullarni o‘rgatishda usullar ketma-ketligi ishlab chiqilganmi		
A	Ha	10 %
B	Yo‘q	60 %
V	Javob bera olmayman	30 %

O‘tkazilgan anketa so‘rovnomasining birinchi savoli natijalari tahlil qilinganda, “Yunon-rum kurashchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga necha yoshdan qabul qilish maqsadga muvofiq?” degan savolga murabbiylarning 20 %i 6–7 yoshni, 30 %i 7–8 yoshni, 50 %i esa 9–10 yoshni maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Ushbu natijalarga ko‘ra, yunon-rum kurashchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga asosan 9–10 yoshdan jalb etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Ikkinchi savol natijalari tahliliga ko‘ra, “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichining birinchi yilida haftasiga necha marta mashg‘ulot o‘tkazasiz?” degan savolga respondentlarning 80 %i haftasiga 3 marta, 20 %i esa haftasiga 4 marta mashg‘ulot o‘tkazishini bildirgan, haftasiga 2 martalik mashg‘ulotni tanlaganlar kuzatilmadi. Bu esa boshlang‘ich bosqichning birinchi yilida haftasiga 3 martalik mashg‘ulot eng maqbul variant ekanligini ko‘rsatadi.

Uchinchi savol natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichining ikkinchi yilida respondentlarning 70 %i haftasiga 4 martalik, 30 %i esa haftasiga 3 martalik mashg‘ulotni ma’qul deb hisoblagan. Haftasiga 2 martalik mashg‘ulotni tanlagan murabbiylar qayd etilmadi. Bu holat tayyorgarlikning ikkinchi yilida mashg‘ulot yuklamasini bosqichma-bosqich oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi savol natijalari boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi yunon-rum kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yoshga xos harakatli o‘yinlar va maxsus mashqlardan foydalanish darajasi past ekanligini ko‘rsatdi. Respondentlarning 20 %i ushbu vositalardan foydalanishini bildirgan bo‘lsa, 50 %i foydalanmasligini, 30 %i esa aniq javob bera olmasligini qayd etgan.

Beshinchi savol natijalari texnik usullarni o‘rgatishda

usullar ketma-ketligi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Respondentlarning 10 %i bunday tizim mavjudligini tasdiqlagan, 60 %i mavjud emasligini bildirgan, 30 %i esa javob berishga qiynalgan.

Olingan natijalarga asoslanib, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarga birinchi o‘quv yilida tik turgan holatda uchta va parter holatida uchta, jami oltita texnik usulni o‘rgatish zarur deb hisoblandi.

Murabbiylarning aksariyati birinchi o‘quv yilida texnik usullarni tik turgan holatda quyidagi ketma-ketlikda o‘rgatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish, qo‘l ostidan sho‘ng‘ib parter holatiga o‘tkazish, bo‘yin va qo‘lni biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish. Shundan so‘ng parter holatidagi usullarni o‘rgatish tavsiya etiladi: belidan ushlab aylantirib to‘ntarish, yelkasini kalitsimon ushlab aylana yugurib to‘ntarish, bo‘yin va qo‘lni biriktirib ushlab aylantirib to‘ntarish (2-jadval).

2-jadval

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarga tik turgan va parter holatidagi texnik usullarni o‘rgatish ketma-ketligi

№	Tik turgan va parter holatidagi usullarning nomi	Usullarga o‘rgatish murakkabligi
Birinchi o‘quv yilida tik turgan holatida usullar ketma-ketligi		
1	qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish	1
2	qo‘l ostidan sho‘ng‘ib parter holatiga o‘tkazish	2
3	bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish	3
Birinchi o‘quv yilida parter holatida usullar ketma-ketligi		
4	belidan ushlab aylantirib to‘ntarish	1
5	yelkasini kalitsimon ushlab aylana yugurib to‘ntarish	2
6	bo‘yin va qo‘lini biriktirib ushlab aylantirib to‘ntarish	3

Yunon-rum kurashchilari tomonidan olib boriladigan bellashuvlarda hujum harakatlari yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Ularni bajarish jarayonida sportchilar yuzaga kelayotgan vaziyatga mos vositalarni tanlash hamda harakatni boshlash uchun eng qulay vaqtni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan nisbatan kichik texnik xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Ilg‘or tajriba hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yunon-rum kurashchilarning tik turgan va parter holatlarida bajariladigan texnik usullarining ketma-ketligi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan uslub va vositalarni takomillashtirish zarur.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchilarga dastlab asosiy turish holatlarini o‘rgatish, undan so‘ng tik turgan va parter holatlaridagi texnik usullarni quyidagi ketma-ketlikda o‘rgatish maqsadga muvofiq: avval hujum harakatlari, keyin himoya harakatlari, undan so‘ng qarshi hujumlarni bajarishni o‘rgatish. Shundan keyin hosil qilingan ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda turli holatlarga o‘tish texnikasini o‘zlashtirish samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Satipov, B. A. (2022). Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida erkin kurashchilarga texnik-taktik harakatlarni o‘rgatish muammolari. Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnal, (6), 38–41.
2. Tashnazarov, D. Yu. (2021). Boshlang‘ich guruh yunon-rim kurashchilarini texnik usullarga o‘rgatishda modellashtirishning samaradorligini takomillashtirish (PhD diss. avtoreferati). O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq.
3. Sheremetyev, D. N. (2025). Sistematizatsiya sredstv obucheniya yunykh bortsov greko-rimskogo stilya na etape nachalnoy podgotovki (Avtoreferat dissertatsii kandidata pedagogicheskikh nauk). Moskva.
4. Satipov, B. A. (2024). Dastlabki tayyorgarlik bosqichida erkin kurashchilarda jismoniy sifatlarni bog‘liq rivojlanishi va asosiy usullarini shakllantirish (PhD diss. avtoreferati). O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq.